

OLIJ TA'LIMDA TALABALARNING O'QUV YUTUQLARINI BAHOLASH TIZIMLARINING TURLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Maxmudova Mohigul Furqat qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti MM4-P-25 magistranti.

Olimov Temir Hasanovich

Ilmiy rahbar, Turon Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi, akademik, Osiyo xalqaro universiteti professori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21461851>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi oliy ta'limda talabalarining o'quv yutuqlarini baholash tizimlarining asosiy turlari, ularning mazmun-mohiyati hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. An'anaviy baholash tizimidan reyting, kompetensiyaviy, kredit-modul (ECTS) va raqamli baholash tizimlariga o'tish jarayoni ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy baholash tizimlarining talabalarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini xolis baholashdagi o'rni hamda oliy ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, talabalarining o'quv yutuqlari, baholash tizimi, an'anaviy baholash, reyting tizimi, kompetensiyaviy baholash, kredit-modul tizimi, ECTS, raqamli baholash, sun'iy intellekt, ta'lim sifati.

Oliy ta'limda baholash tizimi talabalarining o'quv faoliyati natijalarini aniqlash, ularni tahlil qilish va baholashga qaratilgan tizimli pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu tizim ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u orqali talabalar bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining darajasi aniqlanadi hamda ta'lim sifati nazorat qilinadi.

Baholash tizimi o'z ichiga baholash mezonlari, shakllari, metodlari va vositalarini qamrab olib, ular o'zaro uzviy bog'langan holda faoliyat yuritadi. Oliy ta'lim muassasalarida baholash tizimi faqat bilimni tekshirish vositasi emas, balki ta'lim jarayonini boshqarish va uni takomillashtirish mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi.

Zamonaviy yondashuvlarda baholash tizimi kompetensiyaviy asosda tashkil etilib, bunda talabaning nafaqat nazariy bilimlari, balki amaliy ko'nikmalari, mustaqil fikrlashi va muammolarni hal etish qobiliyati ham inobatga olinadi. Baholash tizimining mohiyati uning ko'p funksiyali ekanligida namoyon bo'lib, u diagnostik, nazorat qiluvchi, rivojlantiruvchi va motivatsion vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, baholash tizimi ta'lim jarayonida shaffoflik va adolatlilikni ta'minlashga xizmat qiladi hamda talabalarda mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Hozirgi kunda oliy ta'limda baholash tizimi raqamli texnologiyalar asosida rivojlanib, uning aniqligi va obyektivligi oshib bormoqda. ¹

Oliy ta'limda baholash tizimlari tarixan ta'lim jarayonining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda shakllanib kelgan bo'lib, uning taraqqiyoti bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Dastlabki bosqichlarda baholash tizimi an'anaviy shaklda, asosan og'zaki so'rov va yozma ishlar orqali amalga oshirilgan hamda u ko'proq subyektiv xarakterga ega bo'lgan. Bu davrda baholashning asosiy maqsadi talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni aniqlashdan iborat bo'lib, ko'nikma va kompetensiyalar yetarli darajada hisobga olinmagan.

¹ Ajjaw R., Tai J., Boud D. Evaluative judgement for sustainable assessment // *Studies in Higher Education*. – 2021. – Vol. 46, №1.

Keyingi bosqichda baholash tizimi takomillashib, yozma nazorat ishlari, imtihonlar va ball tizimi joriy etildi, bu esa baholashni ma'lum darajada tizimlashtirishga xizmat qildi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogik va psixologik tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida baholash tizimi ilmiy asosda qayta ko'rib chiqila boshladi va test texnologiyalari keng qo'llanila boshladi, bu esa baholashning obyektivligini oshirdi. Zamonaviy bosqichda esa baholash tizimi kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlanib, talabaning nafaqat bilim darajasi, balki uning amaliy faoliyatga tayyorligi, mustaqil fikrlashi va muammolarni hal etish qobiliyati ham baholash obyektiga aylangan. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar va elektron baholash tizimlarining joriy etilishi baholash jarayonini yanada samarali, tezkor va shaffof qilishga xizmat qilmoqda.²

1-jadval. Oliy ta'limda baholash tizimlarining turlari va ularning xususiyatlari³

№	Baholash tizimi turi	Asosiy mazmuni	Afzalliklari	Kamchiliklari
1	An'anaviy baholash	Og'zaki va yozma nazorat asosida baholash	Soddalik, tushunarli	Subyektivlik yuqori
2	Reyting tizimi	Semestr davomida ball yig'ish	Doimiy nazorat, motivatsiya	Ballga ortiqcha e'tibor
3	Kredit-modul tizimi	Kredit asosida kompleks baholash	Mustaqil ta'lim rivojlanadi	Tashkil etish murakkab
4	Formativ baholash	Jarayon davomida baholash	Rivojlantiruvchi xarakter	Ko'p vaqt talab qiladi
5	Summativ baholash	Yakuniy natijani aniqlash	Aniq natija beradi	Jarayon hisobga olinmaydi
6	Kompetensiyaviy baholash	Amaliy ko'nikmalarni baholash	Real bilimni ko'rsatadi	Mezoni murakkab
7	Elektron baholash	Raqamli platformalarda baholash	Tezkor va shaffof	Texnik muammo ehtimoli

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, zamonaviy oliy ta'lim tizimida baholash bir nechta o'zaro bog'liq turlardan iborat bo'lib, ularning har biri ta'lim jarayonining muayyan bosqichida muhim vazifani bajaradi. Diagnostik baholash o'quv jarayonini rejalashtirishga xizmat qilsa, formativ baholash talabaning rivojlanish dinamikasini kuzatishga imkon beradi. Summativ baholash o'quv natijalarini umumlashtirsa, kompetensiyaviy baholash talabaning kasbiy tayyorgarligini kompleks baholashga yo'naltirilgan. Shu jihatdan zamonaviy oliy ta'limda mazkur baholash turlarini uyg'un holda qo'llash ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

An'anaviy baholash tizimlari oliy ta'limda uzoq yillar davomida qo'llanilib kelgan bo'lib, ular asosan talabalarining nazariy bilim darajasini aniqlashga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Ushbu tizimda baholash ko'proq og'zaki so'rovlar, yozma ishlar va yakuniy imtihonlar orqali amalga oshiriladi hamda o'qituvchining subyektiv fikri muhim o'rin tutadi.

² Winstone N., Carless D. Designing effective feedback processes // *Studies in Higher Education*. – 2021. – Vol. 46, №2.

³ **Manba:** Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida ishlab chiqildi.

An'anaviy baholash tizimining asosiy xususiyati shundaki, unda talabaning bilimini qay darajada eslab qolganligi va qayta tiklay olishi asosiy mezon sifatida qaraladi, biroq uning amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalari yetarli darajada inobatga olinmaydi. Bu tizimning afzalligi soddaligi va tashkil etishning qulayligida namoyon bo'lsa-da, kamchiligi sifatida baholashning subyektivligi, shaffoflikning yetarli emasligi va talabani rivojlantirishga kamroq yo'naltirilganligi ko'rsatiladi.

Zamonaviy ta'lim talablariga nisbatan qaralganda, an'anaviy baholash tizimi cheklangan imkoniyatlarga ega bo'lib, u talabaning har tomonlama rivojlanishini to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli bugungi kunda ushbu tizim asta-sekin takomillashib, zamonaviy baholash yondashuvlari bilan uyg'unlashtirilmoqda.⁴

Reyting tizimi asosida baholash oliy ta'limda keng qo'llaniladigan zamonaviy baholash shakllaridan biri bo'lib, u talabaning o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich baholashga qaratilgan tizim hisoblanadi. Ushbu tizimda baholash jarayoni semestr davomida amalga oshirilib, talabaning joriy, oraliq va yakuniy faoliyati umumiy ball ko'rinishida jamlanadi. Reyting tizimining asosiy mohiyati shundaki, u talabani doimiy ravishda o'qishga undaydi va uning bilimini faqat yakuniy imtihon bilan emas, balki butun o'quv jarayoni davomida baholash imkonini beradi. Bu esa baholashning obyektivligini oshiradi va talabaning muntazam ishlashini ta'minlaydi. Reyting tizimi orqali talabalarning bilim darajasi aniq raqamlar bilan ifodalanib, ularni o'zaro solishtirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, ushbu tizim talabalar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi va ularning o'z ustida ishlashga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Biroq ayrim hollarda ball yig'ishga ortiqcha e'tibor qaratilishi bilimning mazmuniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunga qaramay, reyting tizimi zamonaviy baholash tizimining muhim elementi sifatida oliy ta'limda keng qo'llanilmoqda.⁵

Kredit-modul tizimi asosida baholash zamonaviy oliy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u talabaning o'quv yuklamasini kreditlar asosida hisoblash va baholashni nazarda tutadi. Ushbu tizimda har bir fan ma'lum miqdordagi kredit bilan belgilanadi va talabaning o'zlashtirish darajasi ushbu kreditlar orqali aniqlanadi. Kredit-modul tizimining mohiyati shundaki, unda talabaning mustaqil ishlari, amaliy mashg'ulotlardagi faolligi va joriy nazorat natijalari ham baholash jarayoniga kiritiladi. Bu esa baholashni yanada kompleks va adolatli qilish imkonini beradi. Mazkur tizim talabalarni mustaqil ta'limga yo'naltirib, ularning o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, kredit-modul tizimi xalqaro ta'lim standartlariga mos kelib, talabalarning akademik mobilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Baholash jarayonining shaffofligi va aniq mezonlarga asoslanganligi ushbu tizimning muhim afzalliklaridan biri hisoblanadi.

Formativ va summativ baholash tizimlari zamonaviy pedagogikada keng qo'llaniladigan asosiy baholash turlari hisoblanadi. Formativ baholash o'quv jarayoni davomida amalga oshirilib, talabaning bilimini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi, ya'ni u talabaning xatolarini aniqlash, ularni tuzatish va o'qitish jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Summativ baholash esa o'quv jarayoni yakunida amalga oshirilib, talabaning umumiy bilim darajasini aniqlashga qaratilgan bo'ladi.

⁴ Raxmonov Sh.R. Ta'lim jarayonida zamonaviy baholash metodlari. – Toshkent, 2021.

⁵ Abdullayeva M.K. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llash. – Toshkent, 2021.

Ushbu ikki baholash turi bir-birini to'ldiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Formativ baholash talabani rivojlanishiga xizmat qilsa, summativ baholash uning yakuniy natijasini belgilaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida ayniqsa formativ baholashga katta e'tibor qaratilib, u talabani mustaqil fikrlashini, o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini va o'qishga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, summativ baholash ham ta'lim natijalarini rasmiy qayd etish va nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi.⁶

Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi baholash tizimi zamonaviy oliy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u talabani nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini ham baholashga qaratilgan. Ushbu yondashuvda baholash mezonlari bilim, ko'nikma va malakalar bilan bir qatorda kommunikativlik, muammolarni hal etish, tanqidiy va kreativ fikrlash kabi kompetensiyalarni ham qamrab oladi. Kompetensiyaviy baholash tizimi talabani real hayotiy vaziyatlarda bilimini qo'llash darajasini aniqlashga xizmat qiladi, bu esa ta'lim natijalarini yanada amaliy yo'naltirilgan qiladi. Ushbu tizimda baholash ko'proq amaliy topshiriqlar, loyihalar, ke'nc-stadiyalar va mustaqil ishlar orqali amalga oshiriladi, bu esa talabani faol ishtirokini ta'minlaydi. Kompetensiyaviy yondashuv baholashni faqat natijaga emas, balki o'quv jarayoniga ham yo'naltiradi, ya'ni talabani rivojlanish dinamikasini ham inobatga oladi. Bu yondashuv zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli yoki elektron baholash tizimlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi natijasida shakllangan bo'lib, ular baholash jarayonini avtomatlashtirish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu tizimlar orqali baholash onlayn platformalar, test tizimlari, elektron jurnal va masofaviy ta'lim vositalari yordamida amalga oshiriladi. Elektron baholashning asosiy afzalliklari uning tezkorligi, aniqligi va shaffofligida namoyon bo'ladi, chunki baholash natijalari avtomatik tarzda hisoblanadi va inson omili bilan bog'liq xatoliklar kamayadi. Bundan tashqari, raqamli baholash tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash imkonini beradi, bu esa o'qituvchining ishini yengillashtiradi. Elektron baholash talabalarga ham qulaylik yaratib, ular istalgan joydan turib baholash jarayonida ishtirok etishlari mumkin. Shu bilan birga, ushbu tizim talabalarning mustaqil ishlashini rag'batlantiradi va ularning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq texnik muammolar va internetga bog'liqlik kabi ayrim kamchiliklar ham mavjud.⁷

Xalqaro baholash tizimlari zamonaviy ta'lim sifatini aniqlash va uni global darajada solishtirish imkonini beruvchi muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida keng qo'llanilayotgan baholash dasturlari qatoriga PISA va TIMSS kiradi. Ushbu dasturlar orqali o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki ularni amaliyotda qo'llash qobiliyati ham baholanadi. Xalqaro baholash tizimlari ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular mamlakatlarga o'z ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa ta'lim siyosatini takomillashtirish va yangi strategiyalar ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

⁶ Sobirov D.S. Ta'lim sifati va monitoring tizimi. – Toshkent, 2022.

⁷ Yo'ldoshev J.G. Ta'lim sifatini boshqarish. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.

Shuningdek, xalqaro baholash tizimlari ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirishga turtki beradi va milliy baholash tizimlarini global standartlarga moslashtirishga yordam beradi.⁸

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ajjawi R., Tai J., Boud D. Evaluative judgement for sustainable assessment // *Studies in Higher Education*. – 2021. – Vol. 46, №1.
2. Winstone N., Carless D. Designing effective feedback processes // *Studies in Higher Education*. – 2021. – Vol. 46, №2.
3. Raxmonov Sh.R. Ta'lim jarayonida zamonaviy baholash metodlari. – Toshkent, 2021.
4. Abdullayeva M.K. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llash. – Toshkent, 2021.
5. Sobirov D.S. Ta'lim sifati va monitoring tizimi. – Toshkent, 2022.
6. Yo'ldoshev J.G. Ta'lim sifatini boshqarish. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
7. Dawson P., Bearman M., Ajjawi R., Tai J., Boud D. Assessment reform in higher education // *Higher Education Research & Development*. – 2023. – Vol. 42, №4.

⁸ Dawson P., Bearman M., Ajjawi R., Tai J., Boud D. Assessment reform in higher education // *Higher Education Research & Development*. – 2023. – Vol. 42, №4.